



O'ZBEKISTONDA YER TUZISHNI LOYIHALASH TIZIMI VA UNING ASOSIY MAZMUNI

Egamova Dilchehra Adizovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy
resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti.

Ahadova Nilufar Komiljon qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy
resurslarni boshqarish institute talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7710438>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 28-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 05-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 09-mart 2023 yil

KEY WORDS

Yer tuzish ishlarining asosiy qismi yer tuzish loyihalari yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, yer tuzishni loyihalash tizimi katta ahamiyatga ega.

ABSTRACT

Hozirgi davrda O'zbekistonda aniq yer tuzish tizimi tashkil topgan bo'lib, u davlatimiz yer resurslarini boshqarish sohasiga kiradi va yer qonunlarini hayotga tadbqiq qilish, yerdan samarali va to'la foydalanishni tashkil etish, yerni muhofaza qilish, toza ekologik muhit yaratish va tabiiy landshaftlarni yaxshilash kabi vazifalarni bajaradi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda aniq yer tuzish tizimi tashkil topgan bo'lib, u davlatimiz yer resurslarini boshqarish sohasiga kiradi va yer qonunlarini hayotga tadbqiq qilish, yerdan samarali va to'la foydalanishni tashkil etish, yerni muhofaza qilish, toza ekologik muhit yaratish va tabiiy landshaftlarni yaxshilash kabi vazifalarni bajaradi.

Yer tuzish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ❖ qonunlar bilan belgilangan yer tuzish ishlari;
- ❖ aniq, qonuniy belgilangan yer tuzish ishlarini bajarish tartibi;
- ❖ yer tuzish hujjatlarining tasdiqlangan ro'yxati;
- ❖ yer tuzish faoliyati bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkil etilgan yer tuzish xizmati;
- ❖ yer tuzishni tashkil etish;
- ❖ yer tuzish qatnashchilari;
- ❖ mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi.

Yer tuzish ishlarining asosiy qismi yer tuzish loyihalari yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, yer tuzishni loyihalash tizimi katta ahamiyatga ega. Bu tizim loyiha oldi, loyihalash va loyihani hayotga tadbqiq etish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Loyiha oldi bosqichida yer tuzishni loyihalash maqsadlari uchun quyidagi hujjatlar ishlanadi:

- ❖ ma'muriy tuman yer tuzish chizmalari;
- ❖ ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, agrosanoat ishlab chiqarishini va uning tarmoqlarini rivojlantirish, yer munosabatlarini, yer egaliklarini va yerdan foydalanishni takomillashtirish, tabiatni muhofaza etish tadbirlarini loyihalash

bilan bog'liq ayrim yer tuzish ishlari chizmalari;

❖ bir guruh yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar hududlarida, loyihalash ob'ektlarida yerdan foydalanish va uni muhofaza etish bilan bog'liq yer tuzish tadbirlarini amalga oshirishni texnik-iqtisodiy asoslash hisob-kitoblari.

Tuman yer tuzish chizmasi asosiy loyiha oldi hujjati hisoblanadi va tuman yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza etishning kelajakdagi (10-15 yildan kam bo'lmagan davrdagi) eng samarali yo'llarini aniqlaydi. U tuman agrosanoat majmuasi va boshqa tarmoqlarini, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar tizimini rivojlantirishning asosiy yo'llarini ko'rsatib beradi.

Tuman yer tuzish chizmasida quyidagi masalalar o'z yechimini topadi:

- ❖ kelajakda tuman xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning yer resurslariga bo'lgan talablarini asoslash;
- ❖ qishloq xo'jaligida va boshqa tarmoqlarda foydalanish uchun yaroqli yerlarni aniqlash va ularni o'zlashtirish navbatlarini belgilash;
- ❖ yerlarni tarmoqlar orasida taqsimlash, yer egaliklari va yerdan foydalanish tizimini takomillashtirish va ular yerlaridagi kamchiliklarni tugatish;
- ❖ yer resurslaridan intensiv foydalanish va qishloq xo'jalik yerlari unumdorligini oshirish yo'llarini belgilash;
- ❖ xo'jalik markazlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratizimlari tarmoqlarining kelajakdagi rivojlanishini va hududiy joylashuvini aniqlash;
- ❖ qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- ❖ yerni va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- ❖ belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur kapital mablag'lar, moddiy va mehnat resurslari miqdorini aniqlash va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Yer tuzish tizimi oldida turgan ayrim masalalardan kelib chiqqan holda, yer qonunlarini hayotga tadbiq qilishda, yer islohatini o'tkazishda, tabiatni muhofaza etish tadbirlarini mustaqil ravishda o'tkazishda tuman yer tuzish chizmasi tarkibida yerdan foydalanish va uni muhofaza etishga qaratilgan ayrim chizmalar ham ishlanishi mumkin.

Bunday chizmalar jumlasiga quyidagilar kirishi mumkin:

- ❖ tuman xududidagi yerlarni qayta taqsimlash chizmasi;
- ❖ eroziyaga qarshi tadbirlar chizmasi;
- ❖ buzilgan yerlarni rekul'tivatsiyalash chizmasi;
- ❖ tuman xududida ichki yo'llarni joylashtirish chizmasi;
- ❖ qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirish, ixtisoslashtirish va yiriklashtirish chizmasi.

Bu chizmalar ham loyiha oldi hujjatlari jumlasiga kiradi va ulardan yer tuzish loyihalarini ishlashda foydalaniladi.

Texnik iqtisodiy asoslashlar va hisoblardan ham loyiha oldi ishlari sifatida foydalaniladi. Bunday asoslashlar va hisoblashlar asosan sug'orish va melioratsiya ishlarini o'tkazishda, hamda ular bilan bog'liq gidrotexnik inshootlarini qurishda va boshqa murakkab ob'ektlarni loyihalashda qo'llaniladi. Ularning asosiy vazifasi yuqorida ko'rsatilgan ishlarning zarurligini va iqtisodiy samaradorligini asoslashdan, bu ishlarni amalga oshirishning eng samarali yo'llarini va usullarini topishdan, ularni amalga oshirish tartibini belgilashdan iborat.

Yer tuzishni loyihalashning loyiha oldi asosi sifatida yer resurslaridan foydalanish va ularni muxofaza etishning mintaqaviy dasturlaridan ham foydalanish mumkin. Ular yerdan foydalanishni va yerlarni muhofaza qilishni tashkil etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish muddatlarini, bajaruvchilarini, zarur moddiy, mehnat va boshqa resurslarni o'z ichiga oladi.

Yechiladigan muammolar mazmuniga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: yangi yerlarni o'zlashtirish dasturi; tuproqni eroziyadan himoyalash dasturi; buzilgan yerlarni tiklash dasturi; tuproq unumdorligini oshirish dasturi va boshq.

Mintaqaviy dasturlarni ishlashga asos bo'lib, respublika miqyosida ishlangan shunga o'xshash dasturlar hamda yerdan foydalanishni va yerlarni muhofaza etishni bashoratlash bo'yicha ishlar natijalari xizmat qiladi.

Respublika miqyosida yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni va yerlarni muhofaza qilishni tashkil etish bo'yicha asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun yer tuzish xizmati tomonidan mamlakatimiz (mintaqalar) yer-suv resurslaridan foydalanish va yerlarni muhofaza qilish bosh chizmasi ishlanadi. Bu chizmalar asosida esa viloyat yer tuzish chizmalari ishlanadi.

Tuman yer tuzish chizmalari viloyat yer tuzish chizmalariga nisbatan kattaroq aniqlikda ishlanadi. Ularda yer tuzishning asosiy masalalari bo'yicha yechimlar qabul qilinadi. Bu yechimlar keyinchalik xo'jaliklararo, xo'jaliklarda ichki yer tuzish, melioratsiya, aholi yashash joylari, yo'l qurilishi va boshqa injenerlik loyihalarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Zarur hollarda yer tuzish loyihasini ishlashdan oldin qidiruv va izlanishlar o'tkaziladi. Bu ishlarga topografiya-geodeziya, tuproq, tuproq eroziyasi, tuproq melioratsiyasi, geobotanika, suv xo'jaligi, yo'llar, aholi yashash tizimini o'rganish va yer tuzish bilan bog'liq qidiruv va o'rganish ishlari kiradi. Qidiruv va o'rganish ishlari natijalari va yer kadastri hujjatlari loyiha ishlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Bu ishlar ham yer tuzish xizmati tomonidan bajariladi.

Tuman yer tuzish chizmalari va boshqa loyiha oldi hujjatlari asosida xo'jaliklararo va xo'jaliklarda ichki yer tuzish loyihalari ishlanadi.

Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari yangi qishloq xo'jalik korxonalarini tashkil etish, mavjud korxonalar yerlaridagi kamchiliklarni tugatish, noqishloq xo'jalik korxonalariga yer ajratish masalalarini yechadi.

Faqat xo'jaliklararo yer tuzish loyihasi asosidagina korxonalariga, tashkilotlarga, muassasalarga va fuqarolarga yerga egalik qilish, yerdan foydalanish huquqlarini beruvchi xujjatlar beriladi. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasi yerga ko'chirilganidan va yerda xo'jaliklar chegaralari chegara belgilari bilan aniq belgilanganidan keyingina yer egalari va yerdan foydalanuvchilar o'z faoliyatlarini boshlashlari mumkin.

Xo'jaliklarda ichki yer tuzish loyihalari faqat qishloq xo'jalik korxonalari uchun tuziladi. Ularning asosiy vazifasi yerdan foydalanishni va yerlarni muhofaza qilishni hamda yer bilan ajralmas bog'langan ishlab chiqarish vositalarini oqilona va samarali tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham xo'jaliklarda ichki yer tuzish loyihalari nafaqat, qishloq xo'jalik korxonalari xududlarini tashkil etishni balki, aholi yashash tizimini, ishlab chiqarishni, mehnatni va boshqarishni ham tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi.

Xo'jaliklarda ichki yer tuzish loyihasida quyidagi asosiy masalalar yechiladi:

- ❖ yerlarni xo'jalik bo'limlari orasida taqsimlash, xo'jalik va ishlab chiqarish markazlarini joylashtirish, asosiy magistral yo'llarni va boshqa umumxo'jalik ahamiyatiga ega

injenerlik ob'ektlarini joylashtirish;

❖ xo'jalikning iqtisodiy va ekologik asoslangan yer turlari tarkibini belgilash, yerlarni bir turdan boshqa turga o'tkazish va yaxshilash;

❖ daraxtzorlarni joylashtirish, almashlab ekish, yaylovlar va pichanzorlardan almashlab foydalanish tizimini ishlab chiqish, ularning hududlarini tashkil etish;

❖ yer egalari va yerdan foydalanuvchilar uchun yerdan foydalanish bo'yicha majburiy talablar va me'yorlarni belgilash.

Yer tuzish loyihalarida ko'zda tutilgan yer tuzish tadbirlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida, ayrim hollarda tuman yer tuzish chizmalarida ham aniq yer uchastkalari bo'yicha yerdan foydalanish va yerlarni muhofaza etish bo'yicha ishchi loyihalari tuziladi.

Bu loyihalar yerdan va yer bilan bog'liq boshqa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va yerlarni muhofaza qilish bo'yicha, amalga oshirilishi uchun kapital mablag'lar talab etiladigan barcha tadbirlarga tuziladi. Bu tadbirlar jumlasiga yangi yerlarni o'zlashtirish, qishloq xo'jalik yerlari sifatini yaxshilash, yerlarni rekul'tivatsiyalash, irrigatsiya, melioratsiya va yo'l tarmoqlarini qurish, bog'lar, ihota daraxtlari polosalari va boshqa daraxtzorlarni yaratish, eroziyaga qarshi gidrotexnik inshootlarni qurish va boshq. kiradi.

Ishchi loyihalar moliyalashni boshlash va belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yer tuzish loyihalarini amalga oshirish bosqichida loyihani hayotga tadbiriq etish jarayoni ustidan mualliflik nazorati o'rnatiladi. Zarur hollarda esa mualliflik nazorati o'tkazilayotganda loyihaga tuzatishlar kiritilishi mumkin. Mualliflik nazorati yer tuzish xizmati tomonidan amalga oshiriladi. U loyiha yechimlarining o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini, belgilangan texnologiyalarga va ishlarning smeta bahosiga, yerdan foydalanish va yerlarni muhofaza qilish bo'yicha majburiy talablar va me'yorlarga to'la rioya qilishni ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Mualliflik nazorati natijalari tahlil etilib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarning kelib chiqish sabablari aniqlanadi va ularni tugatish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).
2. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94
3. Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014. – С. 49.
4. Жураев Т. Х., Эгамова Д. А. ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ДЛЯ СИМУЛЯЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБОРАЧИВАНИЯ ПЛАСТА //СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ, ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 106-109.
5. Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). Euro-Asia Conferences, 5(1), 285–286.
6. Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. Актуальные научные исследования в современном мире, (6-

2), 23-26.

7. Tuxtayeva, X. T., Egamova, D. A., & Hamroyeva, B. Z. (2022). The Potential of Ecotourism in the Economic and Social Development of Bukhara Region. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 8, 155-158.
8. Adizovna, E. D., & Farrukhovna, Q. L. (2022). LAND RESOURCES MANAGEMENT ISSUES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 138-141.
9. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310.
10. Adizovna, E. D., & Shokirovich, H. S. (2022). Features of Land Monitoring in Agriculture. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 193-196.
11. Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
12. Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 911-915.
13. Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 1-4
14. Adizovna, E. D. (2023). YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 173-178.
15. Adizovna, E. D. (2023). DISTINCTIVE FEATURES OF THE GERMAN CADASTRAL SYSTEM. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(20), 178-182.
16. Эгамова, Д. (2023). Социально-экономическое значение приватизации земельных участков. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 101–108. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/land-reform/article/view/16747>
17. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). GERMANIYA KADASTR TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 358-362.
18. Егамова, Д. А., Бобожонов, С. У., & Мухаматов, К. М. (2014). ПОВЫШЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ. *The Way of Science*, 57.
19. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). O'ZBEKISTONDA MULKNI HIMOYA QILISH HAMDA XUSUSIY MULKCHILIK SHAKLLARINI YANADA TAKOMILLASHTISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(15), 83-89.
20. Худойбердиев, Ф. Ш., Мухаматов, Қ. М., Бобожонов, С. Ў., & Саидов, С. С. (2022). ЧИҚИНДИ ПОЛИГОНЛАРНИНГ АТРОФИДАГИ ЭКИН ЕРЛАР, СУВ ҲАВЗАЛАРИ ВА АҲОЛИ

ЯШАШ ЖОЙЛАРИГА ЗАРАРИНИ ЎРГАНИШ ҲАМДА БУ БОРАДАГИ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ТАҲЛИЛИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 764-775.

21. Худойбердиев, Ф. Ш., Бобожонов, С. Ў., & Мухамадов, Қ. М. Ў. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ЧИҚИНДИ ОБЪЕКТЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ БУГУНГИ ҲОЛАТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 967 - 976.

22. Sh, Khudoyberdiyev F. "Monitoring the Location of Cultivated Lands, Settlements and Water Basins in the Selection of Land for Location of Waste Landfills and Inclusion of Them in the Geo Database." Kresna Social Science and Humanities Research 8 (2022): 53-59.

23. Sh, Khudoyberdiyev F. "FORMATION OF A GEODATABASE OF WASTE LANDFILLS AND GEOVISUALIZATION BASED ON GEOINFORMATION TECHNOLOGIES." ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2022.

24. Pirimov, J. J., Khudoyberdiyev, F. S., Muhamadov, K. M., & Axtamov, S. F. (2021). Modern Geographic Information Systems in Land Resource Management. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 8, 66-69.

25. Khudoyberdiyev Feruz Shamshodovich, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). INNOVATIVE APPROACH TO PASTURE MANAGEMENT AND PRODUCTIVITY IMPROVEMENT. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(05), 491-494. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7VQ69>

INNOVATIVE
ACADEMY